

identity and values. While English fairy tales often portray elements of European historical culture, Uzbek fairy tales emphasize moral principles such as hospitality, wisdom and respect for elders. This comparison helps learners develop a broader worldview and appreciate cultural diversity.

Overall, fairy tales can be considered a powerful educational resource in modern foreign language teaching. Their ability to combine linguistic richness, semantic depth and cultural significance makes them particularly suitable for developing comprehensive language competence. Therefore, teachers should actively incorporate fairy tales into their teaching methodology in order to create engaging, culturally enriched and effective language learning environments.

References

- Cameron, L. (2001). *Teaching Languages to Young Learners*. Cambridge University Press.
- Kramsch, C. (2013). *Language and Culture*. Oxford University Press.
- Nunan, D. (2003). *Practical English Language Teaching*. McGraw-Hill.
- Collie, J., & Slater, S. (2004). *Literature in the Language Classroom*. Cambridge University Press.
- Jalolov, J. (2012). *Chet til o‘qitish metodikasi*. Toshkent.
- Harmer, J. (2007). *How to Teach English*. Longman.
- Ellis, R. (2008). *The Study of Second Language Acquisition*. Oxford University Press.
- Hall, G. (2015). *Literature in Language Education*. Palgrave Macmillan.
- Carter, R., & Long, M. (1991). *Teaching Literature*. Longman.
- Lazar, G. (1993). *Literature and Language Teaching*. Cambridge University Press.
- Brumfit, C., & Carter, R. (2000). *Literature and Language Teaching*. Oxford University Press.
- Ismailov, A. (2020). The role of folklore in foreign language teaching. *Journal of Language and Education*.
- Karimova, D. (2021). Linguocultural aspects of teaching English through folklore texts. *International Journal of Linguistics*.

“THE CENTURY DICTIONARY”DA XORIJIY LEKSIKANING O‘RNI VA TALQINI

Ulug‘bek Rahmonov

Andijon davlat universiteti dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Tel: 998 90 217 71 81

Annotatsiya: Ushbu maqolada til lug‘at tarkibining shakllanishida xorijiy leksikaning o‘rni va ahamiyati “The Century Dictionary” materialлари asosida tahlilga tortilgan. Unda xorijiy so‘zlarni o‘zlashtirma leksikaning alohida qatlami sifatida qarab, ularning diaxronik va sinxronik xususiyatlarini yoritib berilgan. Lug‘atda xorijiy so‘zlarni ajratib ko‘rsatish uchun aniq nazariy mezonlarning mavjud emasligi hamda bu holatning xorijiy leksikani baholashga ta’siri ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Xorijiy leksika, azaliy so‘zlar, o‘zlashmalar, leksikografiya, mahalliy kolorit, diaxroniya va sinxroniya. leksik birlik

Аннотация: В данной статье анализируется роль и значение иностранной лексики в формировании языкового словарного запаса на основе материалов из «The Century Dictionary». В нем иностранные слова рассматриваются как отдельный слой усвоенного лексикона, с акцентом на их диахронические и синхронические характеристики. Выявлено отсутствие четких теоретических критериев для различения иностранных слов в словаре и влияние этого на оценку иностранной лексики.

Ключевые слова: Иностранный лексика, древние слова, заимствования, лексикография, местный колорит, диахрония и синхрония, лексическая единица.

Abstract: This article analyzes the role and importance of foreign vocabulary in the formation of the language vocabulary based on materials from “The Century Dictionary”. It examines foreign words as a separate layer of the acquired lexicon, highlighting their diachronic and synchronic characteristics. The lack of clear theoretical criteria for distinguishing foreign words in the dictionary and the impact of this on the evaluation of foreign lexicon are revealed.

Keywords: Foreign lexicon, ancient words, borrowings, lexicography, local color, diachrony and synchrony, lexical unit.

Ma’lumki, til lug‘at tarkibining shakllanishi va taraqqiyoti jamiyat tarixi, madaniy aloqalar hamda xalqlar o‘rtasidagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, har bir til leksikasi kelib chiqishiga ko‘ra azaliy va o‘zlashtirma so‘zlar turkumidan iborat bo‘ladi. Bu bo‘linish, avvalo, diaxronik xususiyatga ega bo‘lib, til tarixini o‘rganishda muhim nazariy ahamiyat kasb etadi. Biroq sinxronik holatda ham mazkur bo‘linish o‘ziga xos mazmun bilan namoyon bo‘ladi. O‘zlashtirma so‘zlar tarkibida manba tilning orfoepik va orfografik xususiyatlarini ma’lum darajada saqlab qolgan, to‘la o‘zlashib ketmagan maxsus leksik qatlam – xorijiy so‘zlar alohida o‘rin tutadi. Bunday leksik birliklar ko‘pincha muayyan xalqqa xos madaniy, milliy yoki tarixiy realiyalarni ifodalaydi hamda

tilda “mahalliy kolorit” vazifasini bajaradi. Shu sababli xorijiy leksika nafaqat leksikologiya, balki leksikografiya uchun ham murakkab va bahsli masalalardan biri hisoblanadi.

Ma’lumki, tilning soʻzlari kelib chiqish nuqtai nazaridan, qadimdan qolgan (azaliy) soʻzlarga va oʻzlashtirib olingan soʻzlarga boʻlinadilar. Bu diaxronik boʻlinish sinxroniyada ham oʻzgacha tushunishga ega boʻladi. Oʻzlashtirmalar orasida oʻziga xos spesifik “xorijiy soʻzlar” guruhi – manba tilning ma’lum orfoepik va orfografik xususiyatlarini saqlab qolgan hosilalar ajratib koʻrsatiladi (qiyoslang: *café*, *cliché*).

“The Century Dictionary”ga Soʻzboshida Uitni “Lugʻatga yana maxsus terminlar boʻlmagan xorijiy – lotincha, fransuzcha va boshqa soʻzlarning ancha-muncha soni kiritildi, bular yoki ingliz adabiyotida mustahkam oʻrnashib qolgan soʻzlar, yoki ingliz tilida nomlari yoʻq eʼtiborga sazovor narsalarni bildiruvchi soʻzlardir” [2. VI] deb qayd qiladi. Bu fikrni, albatta, yetarli nazariy dalil boʻla oladigan hukm deb hisoblash mumkin. Ayniqsa, muallif bu yerda, aslida oʻzaro kesishadigan prinsiplar haqida gapiradi va uning birinchi rubrikasi (“ingliz adabiyotida mustahkam oʻrnashib qolgan soʻzlar”) mutlaqo ikkinchi rubrikani istisno qilmaydi va aksincha: qiyoslang, masalan, *bungalow* “bungalo” – denotat uchun inglizcha nom yoʻq, ammo *bungalow* – shak-shubhasiz “ingliz adabiyotida mustahkam oʻrnashib qolgan” soʻz. Lugʻatda bu masala boʻyicha eksplitsit nazariy yoʻl-yoʻriqlarning (koʻrsatmalarning) va mezonlarning yoʻqligi xorijiy leksikani [1. 210-211] “The Century Dictionary”ga muvofiq kiritish muammosini muhokama qilishning oʻzini imkonsiz qilib qoʻyadi. Kiritilayotgan xorijiy soʻzlarning miqdoriy tarkibini aniqlashda ham ancha-muncha qiyinchiliklar vujudga keladi. Qiyinchiliklar yana shu bilan chuqurlashadiki, xorijiy soʻzlar ataylab hech qanday belgilanmaydilar. Bu bizni baʼzi bir kuzatishlar bilangina cheklanib qolishga majbur qiladi.

Lugʻatda biz aniqlagan ingliz tili tomonidan oxirigacha oʻzlashtirib olinmagan xorijiy soʻzlar – bular milliy yoki tarixiy tus berilgan “mahalliy koloritdagi”, hodisalarni yoki turmushning tushunchalarini, ijtimoiy tuzumni, xalqning gʻoyasini bildiruvchi, oʻsha xalqning tilidan ingliz tiliga oʻtgan soʻzlardir. Masalan: *setto* (ital.) – falset (ashula aytishda: ovozning yuqori tovushi), *talisman* - (arab.) – tumor (diniy-xurofiy tushunchaga koʻra goʻyo koʻz tegishidan, balo-ofat, ins-jins va shu k. saqlaydigan, ichiga duo bitilgan qogʻoz joylangan uchburchak narsa (odatda boʻyinga, qoʻltiqqa, sochga taqiladi yoki kiyimning ichki qismga tikib qoʻyiladi), *bungalow* (beng.) – “bungalo” (bir qavatli uy), *contrabandist* (isp.) – olib kirilishi yoki olib chiqilishi mumkin boʻlmagan tovarlarning noqonuniy operatsiyalari bilan shugʻullanuvchi shaxs, *copeck* – rus pul birligi, *tarantella* – milliy italyan kuyi (raqs), *kumiss*

(kumiz) – spesifik (o‘ziga xos ichimlik (tat.), zemstvo – mahalliy administrativ o‘z-o‘zini boshqaruv (Chor Rossiyasida), kimono – yaponlar uchun xarakterli bo‘lgan kiyim turi, mandoline – keng tarqalgan torli musiqa asbobi (ital.).

Shunday qilib, Lug‘at tomonidan qayd qilingan xorijiy o‘zlashtirmalarning keltirilgan misollari shundan guvohlik beradiki, Lug‘atning tuzuvchilari tomonidan kiritilgan xorijiy leksika nihoyatda rang-barang. Doiralarning kengligi haqida hukm chiqarish esa qiyindir. Qolaversa, biz olib borgan oralatib tanlov ko‘rsatadiki, “The Century Dictionary”ning tuzuvchilari Ogilvining lug‘ati bilan solishtirganda xorijiy so‘zlarning kirishini bir muncha cheklaganlar, aslini olganda “The Century Dictionary” o‘shandan katta bo‘lgan. [3] Misol uchun, “Sencheri”da Ogilvining lug‘atida qayd qilingan lions, breveté, gardez, gitano, désagrément, enfin va boshqalar yo‘q. Agar Ogilvining lug‘atida xorijiy so‘zlar Ilovada (“Words, Phrases, Noteworthy Sayings, ted Colloquial Expressions, from the Latin, the Greek, and Modern European Languages, Met with in Current English”) ajratib ko‘rsatilgan bo‘lsalar, “Sencheri”da bunday so‘zlar lug‘atning korpusida, o‘zlarining alfavit o‘rnida beriladilar. Amaliy planda oxirgisi (so‘zlarning alfavit o‘rnida berilishi), albatta, zarur so‘zni topishni tezlashtiradi. Biroq bu bir qator hollarda so‘zni xorijiy so‘z sifatida baholashni qiyinlashtiradi, ayniqsa, ilgari ta’kidlab o‘tilganidek, so‘z hech qanday maxsus belgi bilan yoki shriftlar bilan ajratib ko‘rsatilmaydi (ammo, xorijiy so‘zlarni Uebster lug‘atida // belgisidan keyin, yoki, masalan, Concise Oxford Dictionary da kursiv bilan ajratib ko‘rsatishni qiyoslang).

Umuman, S. Stegerning bahosi bilan qo‘shilishish mumkin, u “Sencheri” lug‘atida “xorijiy so‘zlar va iboralar, xususan, fransuzcha so‘zlar va iboralar yaxshi ishlab chiqilgan” [2. 88], deb ta’kidlaydi. Shu bilan birga biz yuqorida aytib o‘tgan izohlarni nazarda tutish kerak bo‘ladi.

Yuqoridagi tahlillarga tayanib shuni ta’kidlash mumkinki, xorijiy leksika til lug‘at tarkibida alohida va o‘ziga xos qatlamni tashkil etadi. U azaliy va to‘la o‘zlashtirilgan so‘zlar orasida oraliq o‘rin egallab, manba tilning orfoepik, orfografik hamda semantik xususiyatlarini ma’lum darajada saqlab qolishi bilan xarakterlanadi. Bunday leksik birliklar, odatda, muayyan xalqqa xos madaniy, milliy va tarixiy realiyalarni ifodalab, tilda “mahalliy kolorit”ni yuzaga keltiradi. “Sencheri” lug‘ati materialli asosida olib borilgan kuzatishlar xorijiy so‘zlarni kiritishda aniq belgilab qo‘yilgan nazariy mezonlar mavjud emasligini ko‘rsatadi. Lug‘atda xorijiy leksika maxsus belgi yoki shrift orqali ajratilmagani esa ularni to‘la o‘zlashtirilgan so‘zlardan farqlashni qiyinlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Амосова Н.Н. Этимологические основы словарного состава современного английского языка. М., URSS, 2015. -С. 220.
2. Steger S.A. American Dictionaries: A Dissertation Submitted to the faculty of the University Verginia in Partial Fulfilment of the Requirements for the Degree of Doctor of Philosophy. Forgotten Books, 2018. -P.160.
3. William D.W. The Century Dictionary. An Encyclopedic Lexicon of the English Language. Legare Street Press, 2022. -P. 260.

FILOLOGIYA YOʻNALISHI TALABALARINING YOZMA NUTQ FAOLIYATIGA XOS MUAMMOLAR VA EHTIYOJLAR

Gafforova Durdona Gafforovna

University of Business and Science. Oʻqituvchi
Elektron pochta: durdonagafforova16@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada filologiya yoʻnalishida tahsil olayotgan talabalar yozma nutq faoliyatida uchraydigan muammolar hamda ularning taʼlimiy ehtiyojlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida talabalar yozma ishlaridagi grammatik, stilistik va mantiqiy kamchiliklar aniqlanib, ularning yuzaga kelish sabablari oʻrganildi. Tadqiqot metodlari sifatida kuzatish, soʻrovnoma hamda matn tahlili metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari talabalar yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirish uchun tizimli metodik yondashuv, akademik yozuv mashgʻulotlari hamda amaliy topshiriqlar muhim ahamiyatga ega ekanligini koʻrsatdi.

Kalit soʻzlar: yozma nutq, akademik yozuv, filologiya talabalari, nutq kompetensiyasi, til oʻqitish metodikasi.

Аннотация: В данной статье систематически анализируются проблемы письменной речи и образовательные потребности аспирантов, обучающихся по филологическому направлению. В ходе исследования были выявлены грамматические, стилистические и логические недостатки в письменных работах студентов (эссе и научные тексты), а также изучены причины их возникновения. В качестве методов исследования применялись наблюдение, опрос и анализ текстов. Полученные результаты показали, что для развития компетенции в письменной речи у аспирантов важное значение имеют системный методический подход, занятия по академическому письму и практические задания.

Ключевые слова: письменная речь, академическое письмо, аспиранты-филологи, речевая компетенция, методика преподавания языка.